



PHILOSOPHICAL AND SCIENTIFIC CONTENT OF THE IDEAS OF JADIDISM AND THEIR SIGNIFICANCE IN MODERN PRACTICE

Nurjaxon Abdujabborovna Eshonkulova

Doctor of philosophical sciences (PhD),

Associate professor of the Navai state mining and technologies university

email: eshonkulova79@list.ru

Navai, Uzbekistan

Feruza Zoyirovna Yusupova

Doctor of philosophical sciences (PhD)

Associate professor of the Navai state mining and technologies university

email: effm@mail.ru

Navai, Uzbekistan

Nurali Bekmurodovich Sunnatov

Doctor of philosophical sciences (PhD),

Associate professor of the Navai state mining and technologies university

email: Sunnatov_1979@mail.ru

Navai, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Jadidism, ignorance, enlightenment, education, modernization, tolerance, cultural heritage, globalization, civil society.

Received: 19.09.25

Accepted: 20.09.25

Published: 21.09.25

Abstract: This article analyzes the philosophical and educational ideas of Jadidism in the context of the modern world. The main thesis is that this movement, which originated in the late 19th and early 20th centuries, has lost none of its relevance today. The study examines Jadidist ideas in four main areas: the philosophy of education, tolerance and intercultural dialogue, the harmony of traditions and modernization, and the role of women in society. The relevance of each area to the present day is scientifically substantiated using examples from the works of Jadidist figures such as Mahmudhodj Behbudi and Abdurauf Fitrat. The article examines Jadidist ideas in promoting education against ignorance, the pursuit of modern knowledge while preserving national identity, and the active participation of women in public life. The conclusion emphasizes that the legacy of Jadidism is not only a historical phenomenon,

but also an applied philosophical basis for solving complex global problems such as backwardness, extremism, and intercultural conflicts.

JADIDCHILIK G‘OYALARINING FALSAFIY-ILMIY MAZMUNI VA ZAMONAVIY AMALIYOTDAGI AHAMIYATI

Nurjaxon Abdujabborovna Eshonkulova

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Navoiy davlat konchiik va texnologiyalar universiteti

email: eshonkulova79@list.ru

Navoiy, O‘zbekiston

Feruza Zoyirovna Yusupova

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

email: effm@mail.ru

Navoiy, O‘zbekiston

Nurali Bekmurodovich Sunnatov

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

e-mail: Sunnatov_1979@mail.ru

Navoiy, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: jadidchilik, jaholat, ma’rifat, ta’lim, modernizatsiya, bag’rikenglik, madaniy meros, globallashuv, fuqarolik jamiyati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik harakatining falsafiy-ma’rifiy g‘oyalari zamonaviy dunyo kontekstida tahlil qilinadi. Unda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yuzaga kelgan bu harakatning bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi asosiy tezis sifatida ilgari suriladi. Tadqiqotda jadidchilik g‘oyalari to‘rt asosiy yo‘nalishga bo‘lib o‘rganiladi: ta’lim falsafasi, bag’rikenglik va madaniyatlararo muloqot, an’analar va modernizatsiya uyg‘unligi, hamda ayollarning jamiyatdagi o‘rni. Har bir yo‘nalishning hozirgi zamon uchun dolzarbligi Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abdurauf Fitrat kabi jadid namoyandalarining asarlaridan keltirilgan misollar orqali ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Maqolada jadidlarning jaholatga qarshi ma’rifatni targ‘ib qilishi, milliy o‘zlikni saqlagan holda zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirishga intilishi va ayollarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi g‘oyalari ko‘rib chiqilgan. Xulosa qismida jadidchilik merosi nafaqat tarixiy fenomen, balki qoloqlik, ekstremizm va madaniyatlararo ziddiyatlar kabi murakkab

global muammolarni hal qilishda amaliy
falsafiy asos bo'lib xizmat qilishi ta'kidlanadi.

ФИЛОСОФСКО-НАУЧНОЕ СОДЕРЖАНИЕ ИДЕЙ ДЖАДИДИЗМА И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В СОВРЕМЕННОЙ ПРАКТИКЕ

Нуржахон Абдужабборовна Эшонкулова

Доктор философии по философским наукам (PhD), доцент,
Навоийский государственный горно-технологический университет
email: eshonkulova79@list.ru
Навоий, Узбекистан

Феруза Зойировна Юсупова

Доктор философии по философским наукам (PhD), и.о.доцента,
Навоийский государственный горно-технологический университет
email: effm@mail.ru
Навоий, Узбекистан

Нурали Бекмурадович Суннатов

Доктор философии по философским наукам (PhD), доцент,
Навоийский государственный горно-технологический университет
email: Sunnatov_1979@mail.ru
Навоий, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: джадидизм, невежество, просвещение, образование, модернизация, толерантность, культурное наследие, глобализация, гражданское общество.	Аннотация: В статье анализируются философско-просветительские идеи джадидизма в контексте современного мира. В качестве основного тезиса выдвигается тот факт, что это движение, зародившееся в конце XIX – начале XX веков, не утратило своей актуальности и в наши дни. В исследовании рассматриваются идеи джадидизма по четырем основным направлениям: философия образования, толерантность и межкультурный диалог, гармония традиций и модернизация, роль женщин в обществе. Актуальность каждого направления для настоящего времени научно обоснована на примерах из произведений таких деятелей джадидизма, как Махмудходж Бехбуди и Абдурауф Фитрат. В статье рассматриваются идеи джадидизма в продвижении просвещения против невежества, стремлении к овладению современными знаниями при сохранении национальной идентичности, активном участии женщин в общественной жизни. В заключении подчеркивается, что наследие джадидизма – это не только историческое явление, но и прикладная
---	---

Kirish. XIX asr oxiri XX asr boshlarida paydo bo'lgan, butun bir jamiyat tafakkurini isloh qilishga qaratilgan chuqur falsafiy-ma'rifiy g'oyalar majmuasi bo'lgan Jadidchilik g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Jadidchilar o'z davrining keskin muammolariga yechim izlab, islomiy qadriyatlar va ma'rifiy g'oyalarni uyg'unlashtirishga intilishdi. Garchi dunyo sezilarli darajada o'zgargan bo'lsa-da, bu harakatning asosiy tamoyillari, maqsadlari dolzarbligicha qolmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi" [1]. Jadidchilik g'oyalarida o'z aksini topgan ta'lim-tarbiyaga e'tibor, bag'rikenglik va madaniyatlar muloqoti, an'analar va modernizatsiya uyg'unligi, ayollarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash kabi masalalarning har bir davr uchun ahamiyatliligi, vatan ravnaqi, kelajagi uchun nazariy poydevor bo'la olishi bilan bog'liq.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maqolada jadidchilik g'oyalari bugungi kunning dolzarb muammolari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Jumladan, ta'lim, bag'rikenglik, an'analar va modernizatsiya uyg'unligi, ayollarning jamiyatdagi o'rni kabi mavzular bo'yicha jadidlar qarashlari hozirgi zamon global muammolari bilan solishtirildi. Shuningdek, jadidchilik g'oyalarini to'rt asosiy yo'nalishga bo'lib o'rganildi, bu esa tadqiqotni tizimli va izchil olib borish imkonini beradi. Har bir bo'limda tegishli adabiyotlar va manbalar asosida ma'lumotlar to'plandi va tahlil qilindi. Shu o'rinda jadid namoyandalarning asarlari, publitsistik maqolalari va nutqlaridan keltirilgan misollar ilmiy tahlil uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu metod jadidlar g'oyalarining asl mazmunini tushunish va ularning bugungi kun uchun dolzarbligini ilmiy jihatdan asoslab berishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning asosiy maqsadi jadidchilik merosini bugungi kunning murakkab global muammolari, masalan, qoloqlik, ekstremizm va madaniyatlararo ziddiyatlar kabi masalalarni hal qilishda amaliy falsafiy asos sifatida ko'rsatib berishdir. Bu yondashuv maqolaga nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyat kasb etishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Jadidshunos, taniqli olim, professor Begali Qosimovning ta'kidlashicha, jadidlarning 1905-1917-yillarda adabiy-madaniy harakatchilikda

qizg'in faoliyat ko'rsatganlari saksondan ortiq bo'lgan. Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919), Sayidahmad Siddiqiy Ajziy (1864-1927), Vasliy Samarqandiy (1869-1925), Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931), Abdulla Avloniy (1878-1934), To'lagan Xo'jamiyorov-Tavallo (1882-1939), Sidqiy Xondayliqiy (1884-1934), Avaz O'tar o'g'li (1884-1919), Muhammadsharif So'fizoda (1869-1937), Abdurauf Fitrat (1886- 1938), Sadridin Ayniy (1878-1954), Abdulvohid Burxonov (1875-1934), Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929), Abdulla Qodiriy (1894-1938), Abdulhamid Cho'lpon (1897-1938) va boshqalar shular jumlasidandir [2;53].

Jadidchilik falsafasi quyidagi yo'nalishlarga asoslanadi: 1. Ta'lim falsafasi: Taraqqiyotning asosi; 2. Bag'rikenglik va madaniyatlararo muloqot; 3. An'analar va modernizatsiya uyg'unligi; 4. Ayol huquqlari va jamiyat taraqqiyoti;

Ularning ta'limga bo'lgan yondashuvi, ta'lim haqidagi g'oyalari butun bir falsafiy tizimga asoslanadi. Ular jaholatni qashshoqlik va qoloqlikning asosiy sababi deb bildilar. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" asari kabi dramalar ham, aslida, ma'rifatning yo'qligi jamiyatni qanday tubanlikka olib kelishini badiiy vositalar orqali ko'rsatishga qaratilgan[3]. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon kabi jadidlar jamiyatning aqliy, ma'naviy va iqtisodiy rivojlanishi, avvalo, ilm-fan orqali ro'y berishini teran anglab yetishdi. Ularning fikricha, "tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto, dini islom va millatg'a xidmat ilmsiz bo'lmaydur"[3;152]. Ular ta'limni shaxsning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, an'anaviy bilimlarni zamonaviy fan yutuqlari bilan boyitishga hamda kelajak uchun bunyodkor avlodni shakllantirishga xizmat qiladigan vosita deb bilishgan. Jadidlar uchun ma'rifat shaxsning emas, balki butun jamiyatning ongli ravishda transformatsiyasi uchun zaruriy shart edi. Bugungi kunda ham ushbu yondashuv dolzarb bo'lib, ilmga sarmoya kiritish har bir mamlakatning barqaror rivojlanishi uchun eng muhim strategik yo'nalishlardan biri ekanligini isbotlaydi.

Jadidchilik falsafasi nafaqat milliy o'zlikni anglashga chaqirdi, balki turli xalqlar, dinlar va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro tushunish va hurmatni targ'ib qildi. Jadidlar ta'kidlashicha, "bizlarga to'rt tilga tahrir va taqdir etguvchilar kerak, ya'ni arabiy, rusiy, turkiy va forsiy. Arabiy til din uchun na daraja lozim bo'lsa, rusiy ham tiriklik va dunyo uchun lozimdur" [3;152]. Ular boshqa madaniyatlardan ijobiy tajribalarni olishni muhim deb bilishgan, ammo bu jarayonda o'z milliy qadriyatlarini yo'qotmaslikka alohida e'tibor qaratishgan. Bugungi globallashuv davrida madaniyatlararo muloqot nafaqat imkoniyat, balki mutlaq zaruratga aylangan sharoitda bu g'oya turli ziddiyatlar, ekstremizm va ksenofobiyaga qarshi turuvchi ma'naviy-axloqiy poydevor vazifasini o'taydi.

Faylasuflar N.X.Xakimov, D.Amriddinova "komil inson"ni shakllantirish jarayonida milliy qadriyatlarni saqlab qolish va uni zamonaviy progressiv g'oyalar bilan boyitishda

jadidchilik ta'limoti mustahkam falsafiy asos bo'lishini ta'kidladilar[4]. Shu nuqtayi nazardan jadidchilikni radikal modernizatsiya harakati deb atash noo'rin. Uning mohiyati o'z an'analari va qadriyatlaridan voz kechmasdan, ularni zamonaviy ilm-fan va texnologiya yutuqlari bilan uyg'unlashtirishga qaratildi. Bu g'oyani "sintez falsafasi" deb atash o'rinli. Jadid namoyondalaridan Abdurauf Fitrat o'tmish madaniyati, san'ati, adabiyotini o'rganish o'z zamonasining talabi deb hisoblaydi. U shunday yozadi: "Azizim, O'rta Osiyoning olamga mashhur bir madaniyati bo'lgan, bu madaniyatning turkiy asarlari qolgan. Bu asarlarning hammasiga birdan "axlatlar" deyish sizning muhokamangizning kirligidan chiqqan yangi bir istiloh bo'lsa kerak. Siz Samarqandning Registoniga borib, eski "axlatlar"dan sanaganingiz madrasalarga diqqat qiling, qarangchi: shularning yiqilayozgak bitta minorasini saqlamoq uchun proletar Davlatu, sho'ro hukumati qancha pul sarf qilg'on? O'rta Osiyoning mana shu madaniyat asarlarining tarixini tiklash, ularning sinfiy mohiyatlarini, san'atcha qimmatini maydonga chiqarish ilmning talabidir" [5]. Jadidlar uchun yangilik eski qadriyatlarni inkor qilish emas, balki ularni boyitish, yangi mazmun bilan to'ldirish edi. Bu yondashuv ko'plab rivojlanayotgan davlatlar uchun o'ziga xoslikni yo'qotmasdan modernizatsiya yo'lini tanlashda muhim falsafiy tamoyil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu yo'l orqali jamiyat nafaqat iqtisodiy rivojlanishga erishadi, balki o'z ma'naviy ildizlariga sodiq qolgan holda o'zgarishlarga moslashadi.

Jadidlarning ayollarning jamiyatdagi o'rni haqidagi g'oyalari ularning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidan dalolat beradi. "A.Fitrat ham o'zining "Munozara" asarida bu haqda fikr yuritib, aksariyat mudarrislarining Turkiston ayollari tahsil olishi "behuda va ayollarning yaratilishidagi hikmat tavolud va tanosul (tug'ish va nasl qoldirish)dir" degan fikriga farangining unga qarshi fikr mulohazalarini keltiradi. A.Fitrat kelajak avlodlarning ongsiz, irodasiz, tarbiyasiz, nodon va johil bo'lmasliklari uchun xotin-qizlar o'qimishli, sog'liqni saqlash va bolalar tarbiyasidan xabardor bo'lishlari kelrakligini zarur deb biladi". Ular ayolning ma'rifatli bo'lishi, oila va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi jamiyatning umumbashariy ravishda yuksalishi uchun muhim omil ekanligini anglab yetishgan. "Xotunlarg'a ilm lozimmi?" degan savolga javob berishda Behbudiy o'z so'zini Anas ibn Molikdan rivoyat qilingan "Talabul ilm har muslim va muslimag'a farzdur" degan hadis bilan boshlaydi. Davomida Qur'onda ayollarga xos hukmlardan tashqari barcha ishda ayol-u erkakka bir xil xitob qilingani, ular zimmasiga erkaklardan ko'proq bir qancha farz, vojib, sunnat orttirilgani, shar'iy hukmlarni ijro etishda ilm va o'quvdan boshqa vosita yo'q ekan holda, xotinlarning o'qishlari lozimligini yolg'iz ko'r va munofiq mutaassib inkor va shubha etishini yozadi [6]. Ular ayollarning o'qishi va kasb egallashi faqatgina shaxsiy baxt uchun emas, balki butun millat ravnaqi uchun zaruriy shart ekanligini ilgari surishgan. Bu g'oyalar gender tengligi uchun kurash kontekstida ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Shu boisdan hozirda yurtimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy hayotda ular faolligini yanada oshirish, ayniqsa, qizlarimizning ta'lim-tarbiya olishlari uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Binobarin, so'nggi yillarda Oliy ta'lim muassalarida qizlar uchun alohida davlat grantlarining ajratilishi, Prezidentimiz farmoni bilan bakalavr bosqichida ta'lim olayotgan qizlarga shartnoma pullari uchun foizsiz ta'lim kreditlarini ajratishning joriy etilishi, magistratura bosqichida ta'lim oluvchi xotin-qizlarga esa shartnoma pullari butunlay davlat tomonidan qoplab berilishining yo'lga qo'yilishi fikrimizning dalilidir.

Jadidchilik merosi shunchaki tarixiy hodisa bo'lmay, balki bugungi kun muammolarini hal qilishda amaliy qo'llanma bo'lishi mumkin.

Jadidlar qarashlariga ko'ra, zamonaviy ta'lim tizimlarini isloh qilish va rivojlantirishda diniy-ma'naviy qadriyatlar hamda tabiiy fanlarni uyg'unlashtirgan yangi modellar yaratish, yoshlarning zamonaviy bilimlarga ega bo'lishi bilan birga o'z milliy ildizlarini ham tushunishini ta'minlash zarur. "Yoshlarimizdan madaniyatga loyiq ravishda o'qub, diniy va madaniy kishilar hozirlansa, tarbiya va ta'limga mohir olim va olima, adib va adibalarimiz yetushsa, maktab va madrasalarimiz muntazam va tartiblik bo'lsa, ziroat, sanoat va tijorat ishlariga mohir kishilar yetushub, zamonaga muvofiq ravishda ish yuritilsa, tartiblik "Dorul-yatim" — yetimxonalar, "Dorul-ojizin" — kambag'alxonalar, kutubxonalar va qiroatxonalar ochilsa, shirkat (tovarishistvo)lar barpo qilinsa, yuqorida dedigimiz kabi, xalqimiz orasida zamonaga loyiq ulum va funundan boxabar ulamolarimiz ko'paysa, och va yalang'och kishilarimizning mayishatlarini tuzatmak uchun harakat qilinsa, o'qutilsa, axloq va odob o'rgatilsa, shul vaqtda eskincha orasidan chiqub, haqiqiy madaniyat bo'stonig'a yuzlang'on hamda madaniyat to'lqunlaridan qutulub, sohili salomatga chiqq'on bo'lur eduk,"- deydi Abdulla Avloniy [7;220]. Ushbu bugungi kun uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganidek, jadidchilik g'oyalari ko'plab jaholat botqog'iga botgan mamlakatlaridagi ta'lim tizimini takomillashtirish, ularni yanada zamonaviy va XXI asr ehtiyojlariga moslashtirish hamda ta'lim tizimini isloh qilishda mustahkam nazariy asos bo'la oladi.

Jadidlarning bag'rikenglik, tinchlik va ilm-ma'rifatga chaqiriqlari bugungi kunda radikalizm va ekstremizmga qarshi kurashishda eng samarali falsafiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy ma'rifatli bo'lishga chorlab, millatimizni dunyoga ochiq ko'z bilan qarashni, zamonaviy xo'jalik yuritishda bilim, fan bilan qurollanib faollik ko'rsatish ehtiyojini ta'kidlaydi. "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur"[3;200]. Ya'ni-ki, zamonaning har qanday xavf-xatariga, ichi va tashqi dushmanlarga, ilmsiz va tor fikrli guruhlarining xurujlariga qarshi ilmiy va ma'rifiy javob berish lozim.

Jadidchilar harakatining asosiy maqsadi ongli fuqarolarni shakllantirish edi. Aqlning ilm va tajriba soyasida kamol topishiga ishora qilgan jadid mutaffakkirlari uchun bolalarda fikrlash iqtidorini hosil qilish, fikr tarbiyasi benihoya zarur va muqaddas bir vazifa hisoblanadi. Binobarin, u muallimlarning “diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan”. Bolalarning fikrlashi tarbiyachining o‘zining fikrlash, intilish doirasi, saviyasi bilan aloqador [7;98]. Ularning kelajak avlodda mustaqil fikrlashni tarbiyalashga doir mas’uliyat, mehnat hamda zaruriyatni targ’ib qiluvchi ushbu g‘oyalarining jamiyatda, ta’lim dargohlarida dasturul amalga aylanishi, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kuchaytirishga, demokratik institutlarni mustahkamlashga, va nihoyat, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga xizmat qiladi.

Jadidchilik g‘oyalari hozirgi davr uchun naqadar dolzarb bo‘lsa, bu g‘oyalarni amalda qo‘llashda shunchalik murakkab epistemologik va sotsial muammolarga duch kelinadi. Ularning asosiy qiyinchiliklari uchta katta yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: globallashuv, texnologik o‘zgarishlar va radikallashuv.

Globallashuv — bu dunyoning nafaqat iqtisodiy va siyosiy o‘zaro bog‘liqligi, balki madaniy universallikning kengayishi demakdir. U “ommaviy madaniyat”ni dunyoning barcha burchaklariga yoyadi. Bu jarayon milliy o‘zlikni saqlashga intilgan jadidchilik g‘oyalari uchun yangi falsafiy muammo tug‘diradi.

Jadidchilarning o‘zlari ham o‘z davrining globallashuviga (ya’ni, G‘arb dunyosidagi ilm-fan va madaniyat yutuqlariga) to‘qnash kelishgan, ammo ular buni o‘z milliy qadriyatlarini yo‘qotmasdan, balki ularni boyitish uchun vosita sifatida qabul qilishgan. Bugungi kunda esa bu jarayon ancha tez va agressiv bo‘lib bormoqda. Jadidchilikning zamonaviy izdoshlari uchun asosiy savol shundan iborat: “Milliy madaniyatni saqlab qolgan holda, global tendensiyalarga qanday integratsiyalashish mumkin?”. Bu savolga javob izlashda “dialog nazariyasi” (M.Baxtin nazariyasi) [8] tamoyiliga tayanishlari mumkin. Ya’ni, o‘zlikni himoya qilish yopiqlik orqali emas, balki boshqa madaniyatlar bilan ochiq, hurmatli muloqot orqali amalga oshiriladi.

Jadidlar uchun ta’lim — bu yangi maktablar, yangi darsliklar va zamonaviy fanlar edi. Ular, asosan, o‘z davrining epistemologik inqilobini amalga oshirishga intilishgan. Bugungi kunda esa biz “texnologik determinizm” davrida yashayapmiz. Texnologiyaning jadal rivojlanishi ta’limning mazmuni va shaklini tubdan o‘zgartirib yubormoqda.

Muammo shuki, ta’lim tizimini nafaqat yangilash, balki uni doimiy ravishda o‘zgaruvchan texnologik muhitga moslashtirish lozim. Ya’ni: birinchidan, ilgari bilimlar asosan kitoblar orqali uzatilgan bo‘lsa, hozirgi kunda bilim manbalari nihoyatda ko‘p va xilma-xil (internet, ijtimoiy tarmoqlar, sun’iy intellekt). Jadidchilik g‘oyalari zamonaviy ta’limda axborotni filtrlab, to‘g‘ri xulosalar chiqarishga o‘rgatuvchi tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Ikkinchidan, texnologik rivojlanish jamiyatni bilimga ega va bilimsiz, raqamli savodli va savodsiz

guruhlarga bo‘lib tashlashi mumkin. Jadidchilik harakati kabi, bu muammoni hal qilish uchun barcha qatlamlarga teng darajada zamonaviy bilimlarni yetkazishga qaratilgan harakatlar, g‘oyalar zarur.

Shuningdek, jadidchilarning o‘zlari ham o‘z davrining fanatizmi va mutaassibligiga qarshi kurashishgan. Ular islomni ma’rifat bilan, ilm-fan bilan uyg‘unlashtirish orqali uni kuchli va rivojlangan din sifatida ko‘rsatishga harakat qilishgan. Radikal guruhlar esa islomni zamonaviy dunyodan uzilgan, tor va ekstremistik tushunchalar bilan talqin qilishadi.

Zamonaviy davrda bu muammoga qarshi kurashda yangi metodologiyalarni ishlab chiqishimiz kerak. Bular:

- Radikal guruhlarining asossiz argumentlariga qarshi ilmiy va mantiqiy dalillar bilan javob berish.
- Jadidchilarning ayollar huquqlari va bag‘rikenglik haqidagi g‘oyalarini ilgari surish orqali radikalizmning inson huquqlarini cheklovchi yondashuvlariga qarshi turish. Bu nafaqat milliy, balki global miqyosdagi dolzarb muammodir.

Xulosa. Jadidchilik harakati o‘zining falsafiy-ilmiy chuqur mazmun mohiyatga egaligi bilan o‘z davridan o‘zib ketgan o‘ziga xos fenomen. Uning ma’rifat, uyg‘unlik, bag‘rikenglik va inson huquqlari haqidagi g‘oyalari zamonaviy dunyo duch kelayotgan murakkab muammolar – qashshoqlik, ma’naviy qoloqlik, ekstremizm va madaniyatlararo ziddiyatlarga qarshi turishda mustahkam falsafiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Jadidlarning bu merosini nafaqat o‘rganish, balki uning zamonaviy mazmunini yangicha sharoitlarda qo‘llash bugungi kunning eng muhim intellektual vazifalaridan biridir.

Jadidlarning zamonaviy izdoshlari o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlarga erishish uchun globallashtirish, texnologik o‘zgarishlar va radikalizm keltirib chiqarayotgan ontologik, epistemologik va aksiologik muammolarni chuqur anglab yetishlari va ularga falsafiy jihatdan munosib javob bera olishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // “Халқ сўзи”, 2020-йил 25-январь.
2. Qosimov B. “Milliy uyg‘onish”. -T.: ”Sharq”, 2004. - 400 б.
3. Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. – Тошкент: “Маънавият”, 2006. - 279 б.
4. Xakimov N.X., Amriddinova D. Jadidchilik ta’limotida komil inson konsepsiyasining falsafiy mohiyati.–Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.
5. Fitrat A. Yopishmagan gajaklar // Qizil O‘zbekiston, 1921-yil 16-sentyabr

6. <https://gujum.uz/ozbekiston/jadidlar-ayollarning-ijtimoiy-siyosiy-hayotdagi-rolini-qanday-baholagan/>
7. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 2-jild: Pandlar, ibratlar, hikoyatlar, nabiylar hayoti, dramalar, maqolalar, sayohat xotiralari. - Toshkent, "Ma'naviyat", 2006. – 304 b.
8. Болтабоев Ҳ. XX аср адабиётшунослигида диалогизм ва Михаил Бахтиннинг адабий-эстетик таълимоти // Филология масалалари. – Т.: 2016, № 4. В.8-14.
9. Эшонкулова Н. Жамиятда нодавлат олий таълим ривожланиш концепциясининг амалга оширилиши ва унинг мамлакат стратегик тараққиёти билан боғлиқлиги // Tamaddun nuri jurnali. – 2024. – Т.5. – №56.
10. Эшонкулова Н.А. Социально-философский анализ феномена счастья // Кыргыз Республикасындагы илимий изилдөөлөр. – 2019. – №. 1. – С.35-42.
11. Eshonkulova N. O'zbekistonda nodavlat oliy ta'lim taraqqiyoti tendensiyalari // O'zbekiston milliy universiteti xabarлари, 2024, [1/6/1], В.260-262.
12. Eshonkulova N.A., Yusupova F.Z. Phenomena Of Happiness In Philosophy And The Meaning Of Life // Boletin De Literatura Oral - The Literary Journal, 10(1), Vol. 10 No. 1 (2023). Pg no: 3944-3948. ISSN: 2173-0695 (Scopus).
13. Юсупова Ф.З. Конструктивная связь нравственно-эстетической культуры и нравственного идеала молодежи // Высшая аттестационная комиссия Кыргызской Республики – Электронный журнал Научные исследования в Кыргызской Республике. – Бишкек, 2023. 4 квартал. – №4. – С.80-90.
14. Юсупова Ф.З. Нравственный идеал – критерий духовного роста молодежи // «Scienceproblems.uz» – Электронный журнал актуальных проблем социальных и гуманитарных наук. – Ташкент, 2023. – №8 (3). (Online). – В.247-251.
15. Yusupova F.Z., Eshonkulova N.A. Ideal And Values As The Expression Of The Aspiration Of The Human Towards Spiritual Perfection// Boletin De Literatura Oral - The Literary Journal, 10(1), Vol. 10 No. 1 (2023). Pg no: 3939-3943. ISSN: 2173-0695 (Scopus).
16. Юсупова Ф.З. Приоритетные направления социально-духовного идеала в джадидизме // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2023. – №4. – В.48-50